



**TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI**
Tashkent state
transport university



**“MAQSUD SHAYXZODA ADABIY
MEROSI VA ZAMONAVIYLIK”
MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
TO‘PLAMI**

TOSHKENT 2020-YIL

<i>Сайдалиева Д.З.</i> Мақсуд Шайхзода шеърлятида халқ оғзаки ижодининг ўзига хос таъсири.....	84
<i>Сиддиқназарова З.М.</i> Мақсуд Шайхзода шеърлярида инсон руҳиятига чизгилар	86
<i>Толупова Д.С.</i> Фанимат саналур хар лаҳза, хар пайт.....	87
<i>Хасанова В.Х.</i> Замон, шоир ва шеър	89
<i>Xalikberdieva N.T.</i> Maqsud Shayxzoda she'riyatida vatanga muhabbat tuyg'ularining ifodalanishi	91
<i>Xudayberganov T.F.</i> Maqsud Shayxzoda asarlari bugungi adabiyot merosi	93
3-SHO'BA.	
<i>Achilov O.R.</i> Maqsud Shakhzoda's viewpoint on humanism in Alisher Navoi's epic work "Khamasa"	94
<i>Achilova G.I.</i> Shaykhzoda - as a great scholar of Navoi's lyrical heritage.....	96
<i>Ergashev K.T.</i> Scientific heritage of Maksud Sheikhzade.....	98
<i>Жовлиев Ж.</i> Шайхзоданинг нодир кўлёмалари	100
<i>Жўрабоев Н.Ю., Умарова Р.Ш.</i> Мақсуд Шайхзода ижодида инсон фалсафаси	103
<i>Koziyeva R.K., Qodirova D.S.</i> Maqsud Shayxzodaning unutilmas ilmiy merosi	106
<i>Mansurova Sh.I.</i> Maqsud Shaykhzoda is an astonishing author and a magnificent creator.....	107
<i>Раматов Ж.С.</i> Мақсуд Шайхзода илми дарё аллома, комусий билим соҳиби.....	108
<i>Ташкенбаева Д.А.</i> Научное наследие Максуда Шейхзаде и интерпретация его произведений в историческом ракурсе в годы второй мировой войны.....	109
<i>Умарова Р.Ш., Файзиев А.Б.</i> Мақсуд Шайхзода ижодида Навоий меъроси.....	112
<i>Sheraliyeva D.A.</i> Scientific heritage of Maksud Shaikhzade and its significance in the development of spirituality of youth.....	113
<i>Юсунов Ш.</i> Зарнинг кадри.....	114
<i>Юлдашева А.Ю.</i> Шайхзода ижодида Навоий талқини	116
4-SHO'BA. XX ASR ADABIY JARAYONI VA MAQSUD SHAYXZODA DRAMATURGIYASI.....	
<i>Атамухамедова Г.С.</i> Литературный процесс XX века и драматургия Максуда Шейхзаде.....	118
<i>Boltayeva I.T.</i> Mirzo Ulug'bek obrazi – yuksak insoniylik timsoli sifatida	119
<i>Закирова М.Р.</i> Литературный процесс XX века и драматургия Максуда Шейхзаде	121
<i>Iskandarova O.R.</i> “Mirzo Ulug'bek” dramasida Mirzo Ulug'bek -ilm-ma'rifat homiysi sifatida	123
<i>Ismatullaeva I.I.</i> The life and oeuvre of Maksud Sheikhzade in literaryrelations.....	126
<i>Иззатуллаева Н.Ж.</i> Мақсуд Шайхзода шеърляти ва драматургияси	128
<i>Комилова М.Г.</i> Мақсуд Шайхзода адабий мероси ва замонамиз.....	131
<i>Kurbanova M.M.</i> Maksud Sheikhzade as a bridge of friendship between uzbek and azerbaijani literature	132
<i>Maksumkulova G.Q.</i> Bolalarda vatanparvarlik, mas'uliyatlilik tuyg'ularining ifodalanishida Maqsud Shayxzoda asarlarining ahamiyati.....	134
<i>Nazarov R.I.</i> Poetry and drama of Maksud Shaykhzade	135
<i>Назирова Д.Р.</i> Мақсуд Шайхзода адабиётшунос олим ва унинг ўзбек драматургиясидаги ўрни	138
<i>Olimjanov O.O.</i> Shekspirona ruh bilan sug'orilgan dramaturgiya	140
<i>Karimov O., Matajonova G.</i> Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” asari – tarixiy-romantik fojia.....	142
<i>Pirmamedova K.</i> Ikki xalqning farzandi.....	144
<i>Рахимова М.А.</i> “Жалолиддин Мангуберди” – ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбияловчи тарихий асар	144
<i>Tashtemirova M.A.</i> Maqsud Shaykhzoda is a researcher of folklore	146
<i>Хасанова В.Х., Ходжаева Ш.М.</i> Литературная деятельность Максуда Шейхзаде	147
<i>Shoniyofova S.N.</i> O'zbek adabiyotida Maqsud Shayxzoda dramalarining ahamiyati	148
<i>Қурбонова М.О.</i> Мақсуд Шайхзода иждодий феномени	150

uzbekскому астроному и государственному деятелю XIV века Улугбеку. По мнению исследователей, «Джалаледдин Мангуберди» и «Мирза Улугбек» заложили прочную основу стихотворной узбекской драматургии.

Особое место в творчестве Шейхзаде занимали литературные переводы. Шейхзаде перевел на узбекский язык произведения Низами, Физули, М.Ф.Ахундова, Ш.Руставелли, Джами, А.Пушкина, М.Лермонтова, В.Шекспира, И.Гёте, Д.Байрона, Н.Некрасова, Махтумкули, Чавчавадзе, Лахути, Н.Хикмета, С.Вургуна, Р.Рза, О. Сарывелли, В. Маяковского, Н. Тихонова и других классиков мировой литературы.

Прекрасный знаток классической литературы Востока, Шейхзаде пишет сотни литературоведческих и публицистических статей, посвященных вопросам узбекской литературы. В 1965 году на IV традиционном кинофестивале республик Средней Азии и Казахстана художественный фильм узбекских кинематографистов «Звезда Улугбека» был удостоен первого места, в 1966 году в Киеве на Всесоюзном кинофестивале этот же фильм занял второе место. Автором сценария фильма был Шейхзаде.

Во многом благодаря его усилиям Ташкентский государственный педагогический университет стал носить имя великого азербайджанского поэта Низами. В последние годы жизни Максуд Шейхзаде работал над исследованием о творчестве великого узбекского поэта Алишера Навои, а также над пьесой «Абу Рейхан Бируни».

В Узбекистане и Азербайджане о жизни и творчестве писателя сняты документальные фильмы. В 2001 году Максуд Шейхзаде посмертно награжден одним из главных орденов Республики Узбекистан — орденом «Буюк хизматлари учун». Как отмечал первый президент Республики Узбекистан Ислам Каримов: «Когда говорим о культурных связях Узбекистана и Азербайджана невозможно не говорить о великом сыне азербайджанского и узбекского народов – о Максуде Шейхзаде. Сын азербайджанской земли Шейхзаде является блестящим представителем узбекской литературы. Написанная его пером трагедия «Мирзо Улугбек» превратилось в национальное достояние узбекской культуры».

Литература:

1. Зокиров М. Максуд Шайхзода: адабий-танкидий очерк. — Тошкент, 1969.
2. Шомансур Ю. Шайхзода — бунёдкор шоир. — Тошкент, 1972.
3. Наставник-созидатель: к 100-летию со дня рождения Максуда Шейхзаде: метод.-библиогр. пособие / Нац. б-ка Узбекистана им. Алишера Навои; сост. У. Тешабаева; ред. Х. Маматраимова; отв. ред. А. Клычбаев. — Ташкент: Нац. б-ка Узбекистана им. Алишера Навои, 2008. — 32 с.

“MIRZO ULUG‘BEK” DRAMASIDA MIRZO ULUG‘BEK -ILM-MA‘RIFAT HOMIYSI SIFATIDA.

O.R. Iskandarova

Toshkent davlat transport universiteti

Annotation: This article deals with the tragedy of Maqsd Shaykhzoda "Mirzo Ulugbek", the unique composition of the drama, the historical color, the poet's image-making skills, Mirzo Ulugbek's activity as a patron of science, the creation of unique characters, the poet's life. Scientific-analytical opinions on the skills of use, the effectiveness of the work of art are given.

Keywords: Historical color, knot, image, dramatic situation, dialogic, monologue text, psychological image, solution, pathos.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maqsd Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” fojiasi, dramaning o‘ziga xos kompozitsiyasi, tarixiy kolorit, shoirning obrazlar yaratish mahorati, Mirzo Ulug‘bekning ilm-fan homiysi sifatidagi faoliyati, o‘ziga xos xarakterlarning yaratilganligi, shoirning so‘z ishlatish mahorati, badiiy asar ta‘sirchanligi haqida ilmiy- tahliliy fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Tarixiy kolorit, tugun, obraz, dramatik vaziyat, dialogik, monologik matn, psixologik tasvir, yechim, pafos.

Maqsd Shaxzoda XX asr o‘zbek poeziyasini rang-barang janrlar- she‘r, ballada, doston, drama, o‘zbek tarji-mashunosligini Shekspirning “Gamlet”, “Romeo va Julietta tragediyalari, Pushkinning “Motsart va Salyeri” she‘riy dramasi, Shota Rustavelining “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” asarlari bilan, o‘zbek adabiyotshunosligini o‘zbek va jahon adabiyoti tadqiqiga bag‘ishlangan salmoqdor ilmiy maqolalari bilan boyitgan ijodkor.

Maqsd Shayxzoda - shoir, dramaturg, tarjimon, olim, pedagogdir. Shoirning “Mirzo Ulug‘bek” dramasi 5 pardali tarixiy fojia bo‘lib, 1960-yilda yaratilgan. Tarixiy asar yaratish oson emas. Lekin dramaturg tragediya fokusiga Mirzo Ulug‘bekning ikki yo‘nalishdagi faoliyat qirrasini: uning olim va hukmdor sifatidagi voqealar tasvirini olgan. Mirzo Ulug‘bek “oliy hukmdor, buyuk olim sifatida ko‘p voqealarni o‘z boshidan kechirgan tarixiy shaxs. Bularni besh pardali tarixiy fojiaga singdirib bo‘lmasligini bilgan M. Shayxzoda ushbu asarda, asosan, ikki yo‘nalishdagi voqealarni, ya‘ni saroy ixtiloflari va buyuk olim olib borgan ilmiy izlanishlarni yoritgan. Drama bilan tanishganingizda sizda ikki xil tuyg‘u paydo bo‘ladi. Adib Mirzo Ulug‘bekni bir tomondan qattiqqo‘l, butun Xurosonni o‘z qo‘lida saqlab qolish uchun har qanday chorani ko‘rishga tayyor hukmdor sifatida, ikkinchi tomondan, ilm-fanning jonkuyari, jahonshumul kashfiyotlar qilgan olim, fan ahlini jonidan ortiq ko‘radigan, biroq saroydagi fisq-u fasod, ig‘vo ishlar oldida ojiz bir

inson qabilida tasvirlaydi”⁵⁷.

Dramada Ulug‘bek qiyofasi ko‘proq asardagi boshqa obrazlar orqali: Ali Qushchi, Sakkokiy, Shayxulislom Burhoniddin, Chin, Hind, Farang, Rus elchilari va xorijlik talabalar bilan bo‘lgan muloqotda ilm-fan homiysi, buyuk olim, ma‘rifat fidoyisi kabi xislatlari namoyon bo‘lsa, Abdulatif Mirzo, uning mahrami Abbos, Qozi Miskin, Xo‘ja Ahror, Sayid Obid kabi saltanat dushmanlari, ig‘vogarlarga nisbatan bo‘lgan munosabatida mutaassiblikka qarshi ashaddiy kurashgan inson sifatidagi xarakteri ochilgan.

Dramada Misr elchisi arab ellarining Samarqand, Buxoro olimlaridan arab tilini, tarixini o‘rgatganligi uchun minnatdorligini aytalar, Farang elchisi “ko‘p bilimlar o‘rgangusi faranglar sizdan” deydilar, hind elchisi “Ulug‘bekning madrasasin xatm etib qaytgan, Hindistonlik mullalarning har kalomida, Donishmandlar shohin shohi Ulug‘bek nomi” deya faxr va iftixor tuyg‘ularini izhor qiladilar. Bu jahon tamadduniga qo‘shgan hssalari uchun otabobolarimizga berilgan baholardir. Dramada anashunday nurli nuqtalar ko‘p. Tragediyaning ilk ko‘rinishlari ham Mirzo Ulug‘bekningdonishmondona fikr va mulohazalari bilan boshlangan:

Mirzo Ulug‘bek padari Shohruh Mirzoning ta‘ziyasiga “qora libos kiyib kelgan do‘stlar” chin, hind, farang, rus, misr elchilariga deydi:

Hamroh bo‘lib yo‘l yurilsa, yuz bermas xatar.
Modomiki, xavotirlik yo‘llarda sizlar,
Buddoiy hind, nasroniy rus, musulmon-arab
Dini mazhab ayirmasdan yo‘l yurgansizlar,
Inoq bo‘lib manzillarga yetgansiz omon,
Nega dunyo yo‘llarida butun kishilik
Bir bo‘lmagay? Nega odam avlodi nuqul
Millataro, dinlararo janjallarga band?
Men sizlarga farmon qilib buyurganim yo‘q,
Bu o‘zimning e‘tiqodim, tajribam, fikrim,
Insoniyat hayotining oliy qonuni.
Quyosh bir-u, dunyo bir-u insoniyat bir.
Shunday so‘lmas bir bog‘dirki, bog‘i ma‘rifat,
Har el unga ekib qo‘ygan o‘z daraxtini.
Har o‘lkaning dilidagi nafosat guli
O‘sha bog‘ning gulzorida yashnab bir mahal
Nasib bo‘lgan har ulusga taratar atrin...

Dramada sharq xalqlarining qadriyatlarini - ustoz va shogird an‘analari Mirzo Ulug‘bek va Ali Qushchi oralaridagi samimiy munosabatlarda tasvirlangan. Tarixga yuzlanadigan bo‘lsak, “buyuk olim johil shariat peshvolari, xususan, ota-bola-shoh va shahzodalar o‘rtasidagi kurashlar oqibatida uning mansabparast o‘g‘li Abdulatif tomonidan 56 yoshda 1449-yil 27- oktabrda fojiali o‘ldirilgan. Mirzo Ulug‘bek vafotidan keyin uning ilmiy ishlari shogirdlari G‘iyosiddin Koshiy, Oloviddin Ali ibn Muhammad Qushchilar tomonidan davom ettirilgani ma‘lum”⁵⁸. Oloviddin Ali ibn Muhammad Qushchi-bu dramadagi Ali Qushchidir.

Dramaning 4-parda 4-ko‘rinishida Ulug‘bekning iroqlik, eronlik, qoshg‘arlik talabalar bilan anjuman tasviri bor.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, dramada bir qator: “fayziyob”, “lokin”, “shukron”, “tadris”, “ko‘zlar oydin”, “iyoza”, “volidajon”, “shonparast”, “shikorbon”, “hayotparvar”, “ontxo‘r”, “halolzoda” “jongudoz”, “shavkatmaob” “shodimarg”, “dastparvarda”, “maromingiz”, “onaboshi” kabi so‘zlar ishlatilganki, bunday so‘zlar tragediyada ichki ohang yarata olgan, poetik fikrga jilo bergan.

“Mirzo Ulug‘bek” oq she‘rda yozilgan. Lekin drama syujetidagi ichki ohang kitobxonni ohanraboday o‘ziga tortadi, unio‘qishli qilgan.

Ulug‘bek xorijlik talabalarga “oq yo‘l” tilar ekan, bundan o‘ttiz yil muqaddam mana shu madrasa ochilishida 90 olim, 100 talaba huzurida ilk darsini o‘tgan mavlono Xorazmiyning ma‘ruzasi bilan bog‘liq voqeaga ularning diqqatini qaratadi:

Lekin, sizga ketish oldi ba‘zi maslahat:
Avval shuki, ilm nurin xalqqa eltishda
Tushunarli tilda ayting maromingizni,
Ilm-i hikmat, riyoziyot, falakiyotning.
Tabobatning, jug‘rofiyaning hamma dasturi
Insonlikka naf qilmasa bu katta nuqson.
Sizga misol: o‘ttiz yilcha bundan muqaddam.
Siz o‘tirgan shu madrasa ochilishida
Birinchi dars o‘qib berish sharofatini-
Men, mavlono Xorazmiyga topshirgan edim,
Chunki menga oshkor edi bilimdonligi.
To‘qson olim, yuz talaba huzurida u
Ko‘p ba‘mani, serfazilat kalomlar aytdi.

⁵⁷Sultonmurod Olim, Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo‘chqorov. “Adabiyot”. Ikkinchi nashri. Toshkent – 2010. 198-b.

⁵⁸“100 mashhur olim” Toshkent – 2016. 4-b.

Ammo...uning hikmatomuz kalomlarini
 Faqat bir men, birda Qozizodadan o'zga
 Hech bir kimsa tushunmadi!Shu uchun sizlar
 Hazar eting takallufdan, g'aliz so'zlardan.
 Ilm inson ko'zin ochar, qulog'in ochar.

Dramada ko'p ishlatilgan badiiy san'atlardan biri- talmehdir. Tarixiy shaxslar va joy nomlarining ishlatilishi bilan bog'liq bu san'at- ya'ni mavlonoXorazmiy bilan bog'liq voqea,o'git kitobxonlarga ta'sir qilmasdan qolmaydi.Zero, badiiy asarning xususiyatlaridan biri kitobxonning hissiyotlari orqali, uning ong va shuuridao'zgarishlar hosil qilishdir.

Tragediyada vaziyatlar tezkor almashinib turadi:Tinchlik-notinchlikka, osudalik-tahlikaga, ilmparvarlik-fitna-yu fasodga sabab bo'ladi,xalqparvarlik- saltanatga qarshi kuchlarningbirda oshkor, birda yashirin isyonigaaylana boradi. Kitobxonbobomiz Mirzo Ulug'bekka naqadar qiyin bo'lganligini qalban his qiladi. Shu o'rinda Abdulatifning ikkiyuzlamachiligi, kaltafahmligi, uning yolg'on-u bo'htonlar manbaiga aylanishi, padari buzrukvorining obro'yiga putur yetkazib, shu yo'l bilan taxtga erishish maqsadi,bibisi Gavharshodbegimning Samarqandga kelib vaziyatlarni chigallashtirishi, nabirasi Abdulatifga "Temur toji sizga ko'p loyiq" deb uni qo'llaganday, aslida marhum o'g'li Boysunqur Mirzoning farzandi Alauddavlani taxtga o'tqazish rejasi, "Og'lingni men sulton ko'rsam, qolmas armonim, Temurbekka voris bo'lgay Alauddavla !...Yana davlat sohibasi bo'lurman o'zim"deya Xo'ja Ahror bilan bir necha yillardan beri hufyarejalar tuzishi, bu onaning, bu darajada makkoraligiga hayron qoladi. Manashunday tragik vaziyatlarda Ulug'bekning suyaklarni zirqiratadigan og'riq-alam-iztirobiquyidagi satrlardanidolangan:

Meni tuqqan ona bundoq!

Mendan tug'ilgan o'g'il undoq!

Ey kajraftor falak...uyalgin!

Iroqlik, eronlik, qoshg'arlik talabalarga Ali Qushchi ipak qog'ozlarga ko'chirilgan Ulug'bekning jadvalini sovg'a qiladi: Ya'ni bu jadvalda tarixiy voqealarning sanalarini xatosiz topish usullaribor edi. Bu yerda ham olimning uzoqni ko'zlagan donishmand, dunyo xalqlarini tinch va osuda yashashini xohlayotgan alloma ekanligi tasvirlangan.

Yoxud bizning Samarqandni xoqon Chingizxon

Olti yuz-u o'n oltinchi hijriyda bosib,

Yerga yakson etganligi bizlarga ma'lum.

Xo'sh, chinlilar tarixida bu qaysi yildur?

Mana jadval! Shu xonadan topasiz javob.

Dramada barcha obrazlar tirik chiqqan: ularning ichki va tashqi mohiyatlari bir-biriga mutanosib yaratilgan.Masalan, ov paytidagi shoir Sakkokiyning portreti Ulug'bek va Addurazzoq dialoglari orqali chizilganki,kitobxon shoir Sakkokiyni ko'z oldiga aniq va tiniqkeltiradi:

Oh, mavlono, she'ringizning hamma o'qlari

Ovda uzgan o'qingizga o'xshasa agar,

Demak sira dilbar dilin ovlamabsiz-da!

Ovchilikda o'qlaringiz ancha beparvo,

Qofiyasi qovushmaydi, juftin topmaydi.

Ulug'bek:

Nega shunday, siz mavlono, quyonna ko'zlab,

O'q uzsangiz borib tushar laylak iniga.

Abdurazzoq:

Siz mavlono, shaxsan o'qni uzgandan ko'ra,

Birovlarning o'qin ko'proq yebsiz chamasi,

Yanglishmasam, shu misralar o'zlariniki:

"Majruh bo'lar g'amzang o'qi birla damodam,

Bag'rimki, erur tiri-malomatga nishona"

Bu so'z o'yini, yengil yumor, xalqonalik, obrazlarning tiynatini naqadar ocha bilgan! Xayolparast, hayotparast, ishqparast Sakkokiyning javobi ham ichki jozibaga egaligi bilan individuallik kasb etgan:

Shundoq hazrat! Nazarimda zolimlik qilib,

Ohularni o'ldirmoqlik fe'lidan ko'ra

Ohu ko'zli dilbarlarga nishona bo'lmoq,

Va ulardan yaralanmoq yuz chandon a'lo!

Yoki Piri Zindoniyning podshoh bilan haqiqat chorrahalaridagi ayovsiz mubohasalarini eslab ko'ring: Mirzo Ulug'bek "Men shohlikni ma'rifatga qildim dastyor" desa, Piri Zindoni ham haqiqat oldida o'zgarmagan mezonlarini aytadi:

Tushunmayman, tushunmayman, shavkatli Mirzo,

Taxt qanaqa ma'rifatga poydevor bo'lgay?

Vaholanki, toj boshdagi fikrga qafas.

"Epik va dramatik asarlarda qahramon xarakterini yaratishning asosiy vositalaridan biri personaj nutqi sanaladi. Zero, asardagi har bir personaj o'zining yoshi, jinsi, ijtimoiy qatlamga mansubligi, fe'l-sajiyasi, madaniy-ma'rifiy

saviyasi kabilarga muvofiq gapiradi, demak, nutqi bilan o'zini tavsiflaydi.”⁵⁹

Dramaning 5-parda 5-ko'rinishidagi voqealar Ota Murodning hovlisiga yuz beradi. Kuz, bulut, qorong'ulik. Bu uch detal fojidan darak beradi. Ya'ni Mirzo Ulug'bek mamlakatda fitna-yu fasoning tugatilishini istab, qo'ni-qo'shni davlatlarga bosqin yasab Temurbek nasliga qarg'ish va la'natlar keltirmasligini, arboblarga qasos tig'i botirilmassligini, madrasa va rasadxonaga zavol yetmasligini, kutubxona va kitoblarni omon saqlanishini, haramidagi ahli ayolning izzat va iffatiga g'ubor cho'kmasligini talab qilib, taxtdan iste'fo beradi. Abdulatifning odamlari “Ont ichamiz, ahd etamiz, bahaqqi Xudo” deb rozilik bildiradilar. Va shu oning o'zidayoq otasi - Sayid Obidning xuni uchun o'g'li Abbosni Mirzo Ulug'bekka qarshi tig'ushlashga majbur qiladilar. Buyuk olim, Xuroson davlatini qirg yil boshqargan hukmdorning umriga nobakor o'g'il Abdulatif, uning mahrami Abbos, Xo'ja Ahror kabi din nomi bilan ish ko'ruvchi ikkiyuzlamachi, munofiq, razil kimsalari yakun yasaydilar.

Drama yakunidagi Piri Zindoniyning dil so'zlaribashariyatningham dil so'zlaridayjaranglaydi:

Voasaf, hech kimsadan uyalmay bugun,

Men yig'layman, yurak qoni bilan yig'layman!

Yetim qolgan el dardiga kuyib yig'layman!

Bosh qo'yaman tuprog'iga ulug' insonning!

Mana 600 yil o'tdi, lekin ikkinchi bor qomusiy olim Mirzo Ulug'bek tug'ilmadi!!! Insoniyat yashar ekan, Abdulatifning nomi ham duoibad bilan tilga olinaveradi. Maqsad bu xatolarni takrorlamasligimizda. Sergak tortishimizda. Tarixdan xulosa chiqara bilishimizda.

Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug'bek” fojiasi asrlar osha anashunday tarbiyaviy vazifani o'taydi. Bu realistik asarning asosiy vazifasidir.

Adabiyotlar:

1. Sultonmurod Olim, Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo'chqorov. "Adabiyot". Ikkinchi nashri. Toshkent - 2010. 198-b.
2. "100 mashhur olim" Toshkent – 2016. 4-b.
3. Quronov Dilmurod. "Adabiyot nazariyasi asoslari". Toshkent - 2018. 248-b.

THE LIFE AND OEUVRE OF MAKSUD SHEIKHZADE IN LITERARY RELATIONS

I.I. Ismatullaeva

Tashkent State Transport University

Annotation: In the following article the author gives information about prominent and multifaceted person Maksud Sheikhzade. It is noted that he was a poet and playwright, literary critic and translator, historian and educator, orator and teacher. Maksud Sheikhzadeh was an excellent expert, a master in all the areas. Moreover, he ascended to the top of the Uzbek literary Olympus. In the article his famous works as "Jalaladdin Manguberdi" and "Mirza Ulugbek" were discussed. Another point which was taken into consideration in the article the role of the great poet and his huge contribution to science, in particular, to the development of Navoi studies.

Keywords: literary, playwright, translation activity, intricacies, prose, embodiment, scientific context, literary criticism.

Maksud Sheikhzade is a famous writer, scientist of Uzbekistan, a prominent philosopher, poet, playwright, master of translation, an outstanding teacher, linguist and literary critic. The Uzbek people, the Uzbek land took him into their fold, glorified him, lifted him to the peak of glory. At the end of 1929 the poems of a young Turk with a fiery heart in his chest were published in the Uzbek press. His name is pronounced along with the names of Gafur Ghulam, Aybek, Abdullah Gakhkar, Geyrat, Osman Nasir, Mirtemir, Yashen and other famous masters. Although poetry was one of the main strings of his soul, Maqsud still gave priority to science. Young Sheikhzade began his studies in Tashkent, rose to an academic degree, from 1938 until the end of his life he taught the history of Uzbek literature at the Tashkent Pedagogical Institute named after Nizami, worked as the dean of the faculty and head of the department of Uzbek literature. Soon he became a famous scientist and teacher in the scientific world of Uzbekistan. Prominent Uzbek literary critic and writer Azad Sharafeddinov a year before his death in 2004 collected literary notes and scientific reports made already in the era of independence in a book called "Ijodni anglash baxti". 90-100 pages are dedicated to Abdulgamid Cholpan, Abdurrauf Fitrat. They were rehabilitated in 1956, but until independence in 1991 it was forbidden to pronounce their names aloud. In the book, the author allotted a place to Maksud Sheikhzade along with writers whose work ran counter to the official Soviet ideology. Azad Sharafeddinov began his article "Selfless Representative of Our Poetry" (2003) dedicated to Maksud Sheikhzade with the following words: I saw him for the first time in the auditorium of the Uzbek Pedagogical Institute named after Nizami. His reports, based on deep scientific arguments, made in a simple, clear language, have long gone beyond the institute and spread throughout Uzbekistan. There were even interesting rumors among the students about his lectures. He was a poet and playwright, literary critic and translator, historian and educator, orator and teacher. Maksud Sheikhzadeh was an excellent expert, a master in all the areas.

Looking over the young years of M. Sheikhzade's life, you notice the something invisible at first glance, this is

⁵⁹Quronov Dilmurod. "Adabiyot nazariyasi asoslari". Toshkent – 2018. 248-b.